

KONSTITUTSIYA BIZNIKI

Sobirov Muhammad Orislon o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

"Davolash ishi" II bosqich talabasi

E-mail: muhammadsobirov041@gmail.com

Xolmamatova Farzona Himoyiddinovna

Toshkent davlat texnika universiteti Issiqlik energetika fakulteti

"Atom elektr stansiyalar" kafedrası 1-kurs 85-22guruh talabasi

E-mail: xolmamatovahmadwox@gmail.com

ANNOTATSIYA

Biz, O'zbekistonning yagona xalqi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda,

O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullabyashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz.

Kalit so'zlar. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, referendum, taraqqiyot strategiyasi

Konstitutsiya (lotincha: constitutio — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir.

O‘zRda "O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida" qonun (1991-yil 29 dekabrda umumxalq referendumi bilan tasdiqlangan), "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida" qonun (1993-yil 28 dekabr), "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashqil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida" qonun (2002-yil 4-aprel) Konstitutsiyaviy qonun hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlar 2 guruhga bo‘linadi: 1) konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritadigan Konstitutsiyaviy qonunlar; 2) Konstitutsiyaning muayyan me‘yorlari mazmunini kengroq ochib beradigan va aniqlashtiradigan, xususan, muhim davlat muassasalari hamda organlari, mas, muayyan davlat parlamenti, hukumati, inson huquqlari bo‘yicha parlament vakili (ombudsman), referendum, sudlar va sud tizimi va boshqa davlat organlari to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonunlar.

Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma‘lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o‘zi, ya‘ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo‘linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o‘sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o‘z ichiga oladi, ya‘ni qisman yozilgan bo‘ladi. O‘zgartirish kiritish usuli bo‘yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo‘li bilan o‘zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a‘zolari ovozinig malakali ko‘pchiligi, ba‘zan esa referendum o‘tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub’yektlari tomonidan ratifikatsiyalash va shahrik.) o‘zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo‘yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo‘linadi.


Referendum (referendum) bu fuqarolarning davlat, viloyat yoki mahalliy ko‘lamda eng muhim masalalar bo‘yicha ovoz berish yo‘li orqali o‘z fikrlarini bevosita bildirishlaridir.

O‘zbekistonda Yangi Konstitutsiya bo‘yicha referendum joriy yilning 30 aprel kuni o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida xalqimizning demokratiya g‘oyalariga, ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik kabi qadriyatlarga sodiqligi ifoda etilgan. Ijtimoiy adolat tamoyili mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Prezidentimizning "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi" farmonida mamlakatimizda adolat va qonun

ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish maqsadi belgilangan. Ko‘rib turganimizdek, ijtimoiy adolat jamiyat hayotining asosiy maqsadi va orzusiga aylangan. Strategiyaning 20-maqsadida “Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish; tadbirkorlar va aholi, ayniqsa uning kam ta’minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi “Legal Tech” platformasini ishga tushirish” kabi vazifalarning belgilanishi ijtimoiy adolat tamoyilining asl maqsadini tashkil qiladi.

Xorazm viloyati markazida joylashgan Jaloladdin Manguberdi haykali qoshida "Konstitutsiya - meniki, seniki, bizniki, o'zimizniki!" shiori ostida targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi. Unda viloyatimiz ta'lim muassasalari yoshlari qatorida professor-o'qituvchilari, tyutorlari va minglab talaba-yoshlari faol ishtirok etishdi. Tadbirda turli soha vakillari so'zga chiqishib, Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va referendumning ahamiyati haqida so'z yuritishdi. Poytaxtdan tashrif buyurgan va vohamizning taniqli san'atkorlarining chiqishlari tadbirga yanada xush kayfiyat baxsh etishdi.



XULOSA

Ayni kunda mazkur referendumni o'tkazish va unda aholining faol ishtirokini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat Yangi Konstitutsiya sizniki, bizniki, barchamizniki. Shunday ekan, referendumga barchamiz o'z xohishimiz va yurt ravnaqiga daxldorlik hissi bilan ishtirok etishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Konstitutsiyaviy huquq asoslari.
2. Internet saytlari.